O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVI DARAJASINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

[1]Mirzamurodov Hojiakbar Abduraxmon O’g’li, [2]Raximov Mansur Maqsudbekovich
[1,2]UBS Toshkent filiali, “Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18360257

Annotatsiya. *Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni barpo etish yillari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror bank tizimi yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko‘lami yanada kengayib bordi, bu holat o‘z navbatida xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari o‘rtasida o‘zaro xamkorlik aloqalari rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlari o‘rtasida bir qator samarali loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiy etishida mustahkam rol o‘ynamoqda.*

Kalit so’zlar: *moliya korporatsiyasi, budjet siyosati, sayyohlik infratuzilmasi, bank infratuzilmasi, akkreditatsiya, to‘lov balansi, jahon xo‘jaligi, pul-kredit siyosati.*

Kirish

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlarning amaliy aloqalariga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, ulardan Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar biz tanlagan yo‘l va amalga oshirilayotgan islohotlarning to‘g‘ri ekanligiga qat’iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham yaqin hamkorlik aloqalarini olib bormoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro valyuta fondi (XVF)ga a’zolik to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi 1992 yil 21 sentabrda XVFga a’zo bo‘lib kirdi hamda Vazirlar Mahkamasining 93-F raqamli 1993 yil 27 martdagi Farmoyishiga muvofiq respublikaning XVF imzo kvotasiga to‘lov amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki xalqaro moliya tashkilotlarining aloqa agentligi va avuarlar depozitariysi hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining mazkur muassasalarga a’zoligi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining hukumati bilan kelishgan xolda Moliya vazirligi va Markaziy bank yuqorida qayd etilgan xalqaro tashkilotlar oldidagi qarz mablag‘lar olish, to‘lov foizlarini berish va respublika nomidan qarz majburiyatlarini joylashtirish bilan bog‘liq moliyaviy majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonga XVFning missiyasi texnikaviy yordam ko‘rsatish va hukumatda hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida konsultatsiyalar o‘tkazish maqsadida muntazam kelib turadi. Missiyaning faoliyati iqtisod, moliya sho‘basi va statistika soxasidagi ishning axvolini o‘rganishga, shuningdek, keyingi iqtisodiy islohatlar yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan.

XVF ekspertlarining o‘rganishlari natijasi bo‘yicha tavsiya va analitik materiallar ishlab chiqiladi, makroiqtisodiyot sohasidagi mavjud muammolarni xal qilish yo‘llari haqida tavsiyalar tayyorlanadi, bular barchasi Markaziy bank tomonidan amaliyotda hisobga olinadi. Bundan tashqari XVF bilan bitimning “Valyuta tartibiga nisbatan majburiyatlar” moddasiga muvofiq Fond missiyasi bir yilda kamida bir marta O‘zbekistondagi joriy makroiqtisodiy va valyuta siyosatining obzorini o‘tkazadi. Missiya ishi natijalari bo‘yicha tegishli hisobot tayyorlash bilan birga XVF ijrochi direktorlari kengashi muhokamasiga olib chiqiladi.

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari bilan birgalikdagi xamkorlik va ishlash muayyan ijobiy natijalarni berdi. XVF bank qonunchiligini, buxgalteriyaning hisobga olish hisob raqamlari yangi rejasini xalkaro standartlarga muvofiq ishlab chiqishga, shuningdek hisobga olish va hisobotning yangi tizimini joriy etishga ko‘maklashdi, bu bank nazorati samarasi va uning me’yoriy negizi darajasini oshirish imkonini berdi. XVFning texnikaviy ko‘magi to‘lovlar elektron tizimini joriy etish va statistika ma’lumotlari yig‘ish tizimini yaxshilashga olib keldi.

XVF kreditlari milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash, to‘lov balansini mustaxkamlashga ajratildi va bevosita O‘zbekiston hukumatiga beriladi. XVF raxbariyati va ekspertlari texnik yordam berish va Xukumat hamda Markaziy bankda maslahatlar o‘tkazish maqsadida bir necha bor O‘zbekiston Respublikasiga tashrif bilan keldi.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy resurslar xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlar faoliyati билан bog‘liq jarayonlar xorij iqtisodchi olimlaridan A.V.Anikin[1], V.B.Mantusov[2], M.Nikita[3], T.Gris[4] kabi qator iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot izlanishlarida o‘rin egallaydi. Shuningdek, moliyaviy resurslarning ma’lum bir qismini jahon darajasida markazlashtirilishi jahon xo‘jaligi ehtiyojlarini qondirishi, kreditni rivojlanishi, mamlakatlarning turli sohalardagi xalqaro loyihalar va dasturlarni amalga oshirilishidagi ishtiroki, to‘laligicha iqtisodiy integratsiyalashuvning o‘sishi kabi holatlar o‘zbek iqtisodchi olimlaridan Г.Г.Назарова, Н.Х.Хайдаров[5], A.V.Vahabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev[6] N.X.Jumaev, O.Abduraxmonov[7] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi va XVF tomonidan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo‘yicha imzolangan Memorandumda respublika iqtisodiyoti islohotini davom ettirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, xalqaro joriy operatsiyalar bo‘yicha milliy valyutani ayirboshlash qilinishi ta’minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlikni mustahkamlash to‘g‘risida”gi 1998 yil 18 martdagi 118 qarori bilan iqtisodiy islohatlarni yanada rivojlantirish maqsadida valyuta va savdo tizimini yanada erkinlashtirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishga atroflicha yondoshishni ishlab chiquvchi ishchi guruxi tuzildi. Uning zimmasiga tashqi savdosi tartibga keltirishni yanada yaxshilash, birjadan tashqari valyuta bozorini mustahkamlash, valyuta tizimini erkinlashtirish va joriy operatsiyalar bo‘yicha milliy valyutaning almashtirishiga erishish hamda bir maromdagi almashinuv kursini belgilash, shuningdek XVF bilan bundan buyon xamkorlikka yondoshish va uning tamoyillari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish yuklatildi.

Ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan analitik takliflarda hozirgi vaqtda amal qilayotgan valyuta va savdo tartiblarining o‘ziga xos tomonlari ta’kidlanadi, shuningdek, erkinlashtirishning turli ko‘rinishlari (jadallashtirilgan va tadrijiy erkinlashtirish) tahlili o‘tkaziladi. Bundan tashqari, xujjatda xalqaro tashkilotlar tomonidan erkinlashtirish bo‘yicha tadbirlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari muhokama etiladi. Shu bilan birga erkinlashtirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish qisqa muddatlar ichida bir qator noxush vaziyatlarga, shu jumladan, inflyatsiya o‘sishiga, pul-kredit va budjet tizimiga qisqa vaqtga bo‘lsa ham tazyiq o‘tishiga, shuningdek ba’zi korxonalarda vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilpklar bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi ma’qullanadi. Ularni minimallashtirish maqsadida erkinlashtirish va rasmiylashtirish kursini to‘g‘rilash bilan bir vaqtda, kelishib olingan tartibda pul-kredit va budjet siyosatini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlardan respublikada yuritilayotgan makroiqtisodiy siyosatni hisobga olib, valyuta bozorlarini bosqima-bosqich erkinlashtirish siyosati ma’qul ko‘rildi. 1992 yil sentabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli a’zosi hisoblanadi. 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assosiasiasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlikda O‘zbekiston Respublikasining a’zoligi to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirdi. Hozir Toshkentda Jahon bankning vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

1-jadval.

O‘zbekistonda Jahon banki guruhi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar[8]

Loyihalar	Moliyalashtirish manbasi	Moliyalashtrish hajmi, mln. AQSh doll.
Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash loyihasi, 2-faza	XRA	108.0
Irrigatsiya infratuzilmalari va quvurlarni rekonstruksiya qilish loyihasi	XTTB/XRA	60
Maktab ta’limini rivojlantirish loyihasi, 2-faza	XRA	28.0
Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish loyihasi	XRA	65.5
Samarqand va Buxoro shaharlarida quvurlar tizimi va tozalash inshoatlarini rekonstruksiya qilish loyihasi	XRA	55.0
Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish loyihasi	XRA	25.0

Sirdaryo viloyatida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi	XRA	88.0
Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi (IES) qurilishi loyihasi	XTTB	110.0
Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash loyihasi (Salomatlik-3)	XRA	93.0
Elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi	XTTB	180.0
Olot va Qorako‘l tumanlarida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi	XRA	82.0
Umumiy kreditlash hajmi		**894.5**

Jahon bankining mamlakatga ko‘mak berish bo‘yicha mo‘ljallangan Strategiyasi doirasida Davlatning ustuvor yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan dasturlar to‘plami asosiy 4 yo‘nalishga qaratilgan:

1) iqtisodiy o‘sish uchun sharoitni yaxshilash;

2) qishloqlarda iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini oshirish;

3) aholiga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish;

4) atrof-muhitni boshqarish hamda global ommaviy ehtiyojlarning taqdim etilishi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Jahon banki bilan hamkorlikda quyidagi loyihalar amalga oshirilmoqda:

– Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash loyihasi;

– Irrigatsiya infratuzilmalari va drenajlarni rekonstruksiya qilish loyihasi;

– Maktab ta’limini rivojlantirish loyihasi;

– Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish loyihasi;

– Samarqand va Buxoro shaharlarida quvurlar tizimi va tozalash inshoatlarini rekonstruksiya qilish loyihasi;

– Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish loyihasi;

– Sirdaryo viloyatida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi;

– Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi (IES) qurilishi loyihasi;

– Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash loyihasi (Salomatlik-3);

– Elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi;

– Olot va Qorako‘l tumanlarida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi va boshq.

Jahon banki O‘zbekistonga sog‘liqni saqlashning samarali tizimini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda qatnashmoqda. Xususan, Jahon banki loyihasi O‘zbekistonning barcha viloyatlarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini yaxshilashga

yordam berdi. Shuningdek, bank tibbiyot xodimlarini o‘qitishni va sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish masalalariga tavsiyalar berishni moliyalashtiradi. Jahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni quyidagi jadval ma’lumotlari asosida ko‘rishimiz mumkin.

Bank O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash loyihasi doirasida qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan hamkorlikni ham amalga oshirmoqda. Kredit liniyasini amalga oshirish 95 500 gektar maydonda irrigatsiya va quvur tizimlarini yaxshilashga yordam berdi, shuningdek 600 fermer xo‘jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha kichik va rta korxonalar texnika, jihozlar sotib olish uchun 30 mln. AQSh dollari miqdorida kredit olishgan.

O‘zbekistonning G‘arbiy qismida yashovchi qariyb 2 millon qishloq aholisi xavfsiz va ishonchli suv ta’minotiga ega bo‘lishdi. Bu esa, ayniqsa Orol bo‘yi hududida kasallanish darajasini qisqartirishga yordam berdi. Bundan tashqari, Urganch, Buxoro va Samarqandda suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha loyiha doirasida sanitar-epidemiologiya va viloyat sog‘liqni saqlash markazlarining holati yaxshilandi.

Budjet hisobotining mukammalligini va muntazamligini takomillashtirish bo‘yicha bankning tavsiyalari davlat resurslaridan foydalanishda ichki shaffoflikni oshirishga yordam berdi. Shuningdek, 2011 yilda O‘zbekiston g‘aznachilik tizimida 2001 yilda davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimiga asoslangan budjet tasnifini amalga oshirishda bankning tavsiyalari muhim o‘rin tutdi. Ilg‘or xorij tajribasiga muvofiq lizing tarmoqlari va uy-joy qurilishini moliyalashtirish bo‘yicha qo‘llanilgan tavsiyalar ushbu sohalarni rivojlantirishga imkon yaratdi.

Mamlakatimizning Osiyo Taraqqiyot Banki bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari yetarli darajada faol rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yilda Osiyo taraqqiyot bankiga (OTB) a’zo bo‘lgan. O‘zbekistonda OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 ta muhim sohalarga yo‘naltirilgan. Bular:

– qishloq xo‘jaligi;

– xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

– transport va bojxona tranziti sohalarida mintaqaviy hamkorlik;

– bolalikni himoya qilish va boshlang‘ich ta’limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

OTB 1996 yildan 2013 yilga qadar O‘zbekistonga 53 ta loyiha uchun umumiy summasi 4,06 mlrd bo‘lgan loyihalar tasdiqlanib, 1,5 mlrd. dollardan ortiq kreditlar ajratdi. Shuningdek, ushbu davrda OTB O‘zbekistonga 54,9 mln. dollar mikdorida texnik yordam ko‘rsatdi. OTB tomonidan berilayotgan moliyaviy yordamlarning sezilarli qismi ijtimoiy sohalarni isloh etishni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.

2013 yilda OTB quyosh energiyasidan foydalanishni rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash, qishloqlarda suv ta’minoti tizimini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 691 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratgan.

OTB va O‘zbekiston o‘rtasida 2011-2015 yillarda infratuzilma, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi doirasida Maroqand – Qarshi uchastkasida temir yo‘llarni elektr energiyasi bilan ta’minlash loyihasi, qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishi loyihasi, Andijon shahrida suv ta’minoti va sanitariya xizmatlarini yaxshilash loyihasi, Jizzax viloyatining Zafarobod va Arnasoy tumanlarida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida qishloq aholi punktlarida suv ta’minotini

yaxshilash loyihasi, elektr energiyasidan foydalanish samardorligini oshirish hamda elektr energiyasini nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi bo‘yicha bitimlar imzolangan. Shu bilan bir qatorda OTB va mamlakatimiz hukumati o‘rtasida Quyosh energiyasi bo‘yicha qo‘shma xalqaro ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida Memorandum imzolangan. Mazkur Memorandumga asosan OTB tomonidan quyosh energetikasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishga mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda Osiyo Taraqqiyot Banki bilan amalga oshirilgan dasturlar va loyihalar xususan qishloq xo‘jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, irrigatsiya, suv resurslarini boshqarish, transport va bojxona tranziti hamda bolalikni muxofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish turlari va boshlang‘ich ta’limni yaxshilash kabi sohalarni qamrab olgan.

O‘zbekiston 1992 yildan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki a’zosi hisoblanadi. YeTTB O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi eng yirik investorlardan biri hisoblanadi. YeTTB O‘zbekistonda o‘z faoliyati yettita yo‘nalishini belgiladi. Bular quyidagi sohalarni rivojlantirishga qaratiladi:

– moliya sektori va bank infratuzilmasi;
– kichik va o‘rta korxonalar;
– bozor infratuzilmasi;
– energetika majmuasi;
– paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari;
– sayyohlik infratuzilmasi;
– tabiiy resurslarni o‘zlashtirish.

O‘zbekiston Islom Taraqqiyot bankiga 2003 yil 3 sentabrda a’zo bo‘lib kirgan. Ushbu bank tomonidan mamlakatimizda qator loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirildi, jumladan, mintaqaviy tez tibbiy yordam markazlarini zarur jihozlar bilan ta’minlash, elektr energiyasi uzatish tarmoqlarini qurish, kichik va xususiy biznes uchun moliyalashtirish liniyalari, kollejlar va umumta’lim maktablarini qurish va jihozlash, davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o‘tkazishga ko‘maklashish va boshqalar. 2006 yilda Islom taraqqiyot banki missiyasining O‘zbekistonga tashrifi doirasida Islom taraqqiyot banki va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida 2007-2009 yillardagi uch yillik xamkorlik dasturini ishlab chiqish to‘g‘risida Memorandum imzolandi. Shu bilan birgalikda ITB boshqaruvchilar kengashining 29 yillik yig‘ilishi doirasida O‘zbekiston Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom korporatsiyasiga a’zo bo‘lib kirdi. Ushbu korporatsiya xususiy sektorni moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda, shuningdek, korxonalarni qayta qurish va xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektorga maslahat xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Hozirgi kunda Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi sohalarga yo‘naltirilgan 11 loyihani amalga oshirish uchun 140,22 mln.dollar ajratilgan. Shunindek, Islom taraqqiyot banki va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida 14 loyihani o‘z ichiga olgan xamkorlik dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur doirasida ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish (suv ta’minoti, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshq.), energetika, kichik biznesni rivojlantirish, qishloq
xo‘jaligi kabi sohalarni moliyalashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib uning umumiy qiymati 418,15 mln.AQSh dollarini tashkil etadi.

Hozirda Islom taraqqiyot banki O‘zbekiston hamkorlik qilayotgan xalqaro moliya institutlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga qisqa vaqt oralig‘idagi a’zoligi mobaynida, Bank bilan moliyaviy va texnik hamkorlik barqaror rivojlanib, ijobiy istiqbollarga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonga bank tomonidan sog‘liqni saqlash, ta’lim, irrigatsiya va melioratsiya, energetika, suv ta’minoti, kommunal xo‘jalik, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznesni qo‘llab quvvatlash kabi sohalarda 15 ta loyihani amalga oshirish uchun 463,8 million AQSh dollari ajratilgan.

Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining har yil o‘tkaziladigan va Jidda shahrida bo‘lib o‘tgan 36 yig‘ilishi davomida O‘zbekiston Respublikasi bilan Islom taraqqiyot banki o‘rtasida 2011-2013 yillarga mo‘ljallangan uch yillik Dasturni amalga oshirishga doir hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolandi. Unda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini ko‘paytirish va umumiy qiymati 655,5 million dollarni tashkil etgan 11ta loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, aytish mumkinki, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banki mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda o‘zining mablag‘larini ajratish bilan faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, mamlakatimizdagi bir qator investitsion loyihalarni amalga oshirishda ham mazkur
tashkilotlarning o‘rni muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida strategik manfaatlarini takomillashtirib borib, dunyoning turli joylarida va ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni mustahkamlash sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholi
turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Mamlakatlarning muayyan integratsion tashkilot doirasida birlashuvi, ular o‘rtasida mahsulotlar, xizmatlar va kapital harakati bilan bog‘liq munosabatlarni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, mamlakatlar o‘rtasida yangi texnologiyalarning erkin tarqalishiga, ularning milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish jarayoniga joriy etilishiga qulay zamin yaratadi va pirovardida iqtisodiyot barqarorligiga erishishga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish siyosati avvalo, milliy iqtisodiyotning barqaror darajada o‘sishini ta’minlash hamda jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishiga yo‘naltirilgan. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayoni kuchayishi barobarida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo, MDH davlatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirib
bormoqda.

O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH va Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti kabi integratsion birlashmalarda ishtirok etishi mamlakatimizning jahon xo‘jaligidagi o‘rnini yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutmoqda. Mamlakatimiz 2001 yil iyun oyida Shanxay hamkorlik tashkilotiga (ShHT) a’zo bo‘lib, uning muassisi va teng huquqli qatnashchisiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi hamda Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar hududida akkreditatsiyadan o‘tkazilgan qo‘shma korxonalar va vakolatxonalar soni xo‘jalik sub’ektlari darajasida kooperatsiyaviy aloqalarning faol rivojlanayotganidan dalolat beradi. 2012 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar investorlari ishtirokida 1601 ta korxona faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 270 tasi 100 foiz xorijiy sarmoya hisobiga tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar firma va kompaniyalarining 178 ta vakolatxonasi akkreditatsiyadan o‘tkazilgan. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar hukumat rahbarlari Kengashining qarori bilan Ko‘p tomonlama savdo iqtisodiy hamkorlik dasturi tasdiqlandi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar tomonidan mazkur Dasturni amalga oshirish yuzasidan qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli bosqichma bosqich tadbirlar Rejasi ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish buyicha yaqin kelajakka mo‘ljallangan strategiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, eksportni rag‘batlantirish uchun avvalo, barqaror makroiqtisodiy sharoit yaratish, inflyatsiya sur’atini prognoz darajasida ushlab turish, valyuta almashtirish kurslarining keskin tebranishlariga yo‘l qo‘ymaslik;

ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mulk shaklidan qat’iy nazar, import qilinayotgan ishlab chiqarish vositalarini olish uchun bir xil imkoniyatga ega bo‘lishlarini ta’minlash;

uchinchidan, yetuk mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasidagi islohotlarni davom ettirish;

to‘rtinchidan, eksport salohiyatini rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqori texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

beshinchidan, mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirish.

Eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini divesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o‘zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko‘tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Jahon banki O‘zbekistonga sog‘liqni saqlashning samarali tizimini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda qatnashmoqda. Xususan, Jahon banki loyihasi O‘zbekistonning barcha viloyatlarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini yaxshilashga yordam berdi. Shuningdek, bank tibbiyot xodimlarini o‘qitishni va sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish masalalariga tavsiyalar berishni moliyalashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Аникин, А.В. Золото. Международный экономический аспект: моногр. / А.В. Аникин. - М.: Международные отношения; Издание 2-е, перераб. и доп., 1988. - 331 с.
2. Мантусов, В. Б. Международная экономическая интеграция в современных мирохозяйственных отношениях / В.Б. Мантусов. - М.: Юнити-Дана, 2011. **- 388** с.

3. Мендкович, Никита На пути к евразийскому экономическому чуду. Россия и интеграция на постсоветском пространстве / Никита Мендкович. - М.: Алгоритм, 2015. - 238 с.
4. Грис, Т. Мировая экономика. Современные теории. Экономическая интеграция. Глобализация рынков / Т. Грис, А. Леусский, Е. Лозовская. - М.: Питер, 2001. - 320 с.
5. Назарова Г.Г., Хайдаров Н.Х. Халкаро иқтисодий муносабатлар. – Т.: ТДИУ, 2005.-273 б.
6. Vahabov A.V, Tadjibayeva D.A, Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik.- T.: Baktria press, 2015.- 584 b.
7. Жумаев Н.Х, Абдурахмонов О. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. Монография. – Т.: Akademneashr, 2010. – 160 б.
8. https://mf.uz/uz- Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ахборот сайти маълумотлари